



NEFT GAZ KIMYO SANOATI TEXNOLOGIYASI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY MOBILLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Tursunov Q.Sh.

*Pedagogika fanlari doktori, professor
QMII, "Fizika va elektronika" kafedrasi mudiri*

Murodillayeva M. A.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
"Neft va gaz ishi" kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: kasbiy mobillik, muhandislar, bo'lajak muhandislarini tayyorlash, neft gaz kimyo sanoati texnologiyasi, texnika oliy o'quv yurtlarida kimyo fani, kimyoviy texnologik jarayonlar.

Ключевые слова: профессиональная мобильность, инженеры, подготовка будущих инженеров, технология нефтегазохимической промышленности, химия в технических вузах, химико-технологические процессы.

Key words: professional mobility, engineers, training of future engineers, technology of the petrochemical industry, chemistry in technical universities, chemical technological processes.

Iqtisodiyotda sodir bo'ladigan jadal o'zgarishlar, davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, bandlik tarkibidagi o'zgarishlar har bir inson hayoti davomida doimiy yangilanishga tayyor bo'lishi kerak bo'lgan vaziyatga olib keldi. Ta'limning roli ortib borishishi natijasida "uzluksiz ta'lim" tushunchasi zamonaviy mazmun bilan to'ldirilmoqda. Kasbiy malakani doimiy ravishda oshirishga intilish ta'limning dolzarb vazifasiga aylanib qoldi.

Shaxsni faoliyat subyekti sifatida rivojlantirish ta'lim tizimining maqsadi hisoblanadi. Shaxsning sub'ektivligi uning mobillicini belgilaydi, bu shaxsda moslashish, faol bo'lish, murakkab shaxsiy va kasbiy vaziyatlardan chiqish yo'lini topish qobiliyatlari tufayli inqiroz davrlari jarayonlarini yumshatishga ta'sir qiladi. Mobillic - bu dunyoda sodir bo'layotgan integrasiyalashtirish



jarayonlarining sharti va natijasi bo‘lib, ulardan biri Boloniya deklaratsiyasi va uning bilan bog‘liq o‘zgarishlar edi.

Zamonaviy ishlab chiqarish texnika oliy o‘quv yurtlarida olgan bilimlaridan o‘z kasbiy faoliyatida ijodiy foydalana oladigan, kasbiy ahamiyatga molik bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish zarurligini his qiladigan, innovatsion faoliyatga qodir, ma‘naviy yuksak madaniyati bilan ajralib turadigan mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj ortib boradi. Texnika oliy o‘quv yurti bitiruvchilari, shu jumladan, neft gaz kimyo sanoati texnologiyasi ta‘lim yo‘nalishi mutaxassislari bo‘lib, u sodir bo‘layotgan jarayonlarni mustaqil ravishda tushuna oladigan hamda ishlab chiqarish sohasida paydo bo‘lgan muammolarni ijobiy echimlarini topishda faol ishtirok eta oladigan va mavjud vaziyatdan chiqishning o‘ziga xos yo‘llarini topadigan mobil (harakatchan) shaxs bo‘lishi kerak.

Yigirmanchi asrning to‘qsoninchi yillarining ikkinchi yarmida “Mobillik” tushunchasi olimlar va ilmiy tadqiqot ishlari olib boradigan tadqiqotchilar ishlarida faol qo‘llanila boshlangan. Shu nuqtai nazardan, pedagogika fani quyidagi: ta‘limni takomillashtirish sharoitida kasbiy mobillikning shakllanishi va rivojlanishi tarixi, kasbiy mobil talabalarni tayyorlash, texnika oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, mobil talaba shaxsini o‘zi o‘zini tushunish va boshqa shu kabi muammolarga asosiy e‘tiborini qaratildi [4].

Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalar neft va gaz sanoati texnologiyasi yo‘nalishida kasbiy mobil mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ijtimoiy talablarni, kasbiy mobillikni rivojlantirish jarayonini tashkil etishni ilmiy asoslash zarurligini, oliy ta‘limning “Davlat ta‘lim standarti” talabalari kasbiy mobilligini oshirishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Ta‘limning barcha darajalarida kasbiy mobillik hozirgi davrda o‘rganish uchun dolzarb mammlardan biri sifatida tan olinganligiga qaramay, “kasbiy mobillik” toifasining o‘zi sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab qiladi. Axborotlashgan jamiyatda, “kasbiy mobillik” tushunchasi nafaqat tadqiqotchilar tomonidan noaniq talqin qilinadi hamda ba‘zi hollarda o‘xshash yoki mazmunan yaqin tushunchalar bilan almashtiriladi. Mazkur maqolamiz doirasida amalga oshirilgan manbalarni tahlil qilish natijasida “mobil” tushunchasi quyidagilar: mobil, tez harakat qilish, tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlari tushuniladi. Bo‘lajak muhandislar o‘rtasida kasbiy mobillikni tushunish va ifodalash darajasi boshqacha bo‘lishi mumkin. Biz Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti va Qarshi iqtisodiyot pedagogika universiteti “Neft va gaz ishi” yo‘nalishi fakulteti talabalari o‘rtasida oliy ta‘limning mobil bitiruvchisi qanday shaxsiy o‘ziga



xos xususiyatlarni namoyon etishi kerakligini tushunish bo'yicha maxsus so'rovovnoma o'tkazdik. Ushbu so'rovnoma natijasida talabalar quyidagilarni: muloqot qobiliyati, kompetentlilik, fidoyilik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, vazminlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, aniqlik, xushmuomalalik, mustaqillik, tezkorlik kabilarni ta'kidladilar.

Ish beruvchilarni texnika universitetlari bitiruvchilarining mehnatdagi tartibsizlik, tashabbusizlik, haddan tashqari ambitsiya, qaror qabul qilishda mustaqillik kabi shaxsiy sifatleri tashvish, mas'uliyatning yetishmasligi, yomon muloqot qobiliyatlari, jamoada ishlay olmaslik, stressga zaif qarshilik qoniqtirmaydi.

Ishlab chiqarish subyektlarining so'rovnomalari taqdim etilgan natijalari mutaxassisning "to'g'ri rivojlanishini tushunish" va "mavjud rivojlanish darajasi" o'rtasidagi muammoni ta'kidlaydi. O'rganilayotgan shaxs sifatlarini shakllantirishning maqsadli jarayoni zarur.

Texnika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining mehnat funksiyalarining tezlashishi "mehnatni o'zgarishi qonuni" ning talabi bo'lib, u ishchi kuchining universalligi, uning moslashuvchanligi, ko'p qirraliligi va moslashuvchanligini o'zgartirish qobiliyatining sharti sifatida tushuniladi. Mehnatni o'zgartirish zaruriyatini keltirib chiqaradigan asosiy sabablar ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari sohasidagi jadal ravishdagi rivojlanishi hisoblanadi. Uskunalar, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o'zgarishlar ayrim kasblarning yo'q bo'lib ketishiga va yuqori darajadagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq yangi kasblarning paydo bo'lishiga olib keladi. Zamonaviy texnologiyalar sohasidagi jadal o'zgarishlar ishchi kuchining biron bir faoliyatning bir sohasidagi muvozanat holatdagi nisbatlarni keskin o'zgartiradi, bu esa uning kasbiyligining malaka tuzilmasi, tabaqalanishi va ixtisoslashuvi o'zgarishini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mehnat taqsimotining yangilanishi uning mazmunini tubdan o'zgartirishga olib keladi va ikkinchisi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari va zamonaviy kasblarning paydo bo'lishi uchun old shart sharoitlarni yaratadi. Mahalliy ishlab chiqarishda mehnat o'zgarishi qonuni quyidagi: ma'lum bir kasb chegaralaridagi mehnat o'zgarishi; ishning bir turidan boshqasiga o'tish; asosiy ishni ixtiyoriy asosda turli faoliyat turlari bilan uyg'unlashtirish kabi uchta asosiy shaklda namoyon bo'ladi.

Texnika oliy o'quv yurtlari - bu hozirgi bosqichda ilmiy, ishlab chiqarish, ekologik muhandislik va jamoat faoliyatining boshqaruv sohalari uchun mutaxassislar tayyorlashga mo'ljallangan texnika oliy ta'lim muassasasining shaklidir. Zamonaviy texnika oliy o'quv yurtlari - bu elita ta'lim muassasasi



bo‘lib, unda talabalar chuqur kasbiy bilimlar bilan bir qatorda tabiiy fanlar, ijtimoiy muhandislik, ijtimoiy iqtisodiy va gumanitar bilimlar sohalarida fundamental ta‘lim oladilar. Uslubiy, tizimlashtirilgan invariant bilimlarni shakllantiradigan, keyingi kasbiy qo‘llaniladigan o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun asos yaratadigan, ijodiy qobiliyatlarni va tizimli mustaqil ravishda fikrlashni rivojlantiradigan, bilimlarni egallash usullari bilan qurollantiradigan, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadigan bunday mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va umumiy madaniyati darajasini oshirishga yaqindan yordam beradi.

Kadrlar tayyorlash ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishi kerak bo‘lgan lekin shuning bilan birga, tayyorgarlik darajasi, shaxsiy imkoniyati va ishtirokchilarning yo‘nalishini iloji boricha e‘tiborga olishi kerak bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash texnologiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurati ishlab chiqarish jarayonida ayrim muammolarni keltirib chiqaradi.

Insonning jamiyatda tez ijtimoiy va kasbiy moslashuvchanlikni ta‘minlaydigan shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlarni ifodalash uchun mobillik tushunchasi XX asrning 1927 yilda Amerikaga hijrat qilgan rus olimi, Garvard universiteti professori P.A.Sorokin tomonidan kiritilgan. U aniqlagan ijtimoiy makonning gorizontal va vertikal parametrlariga muvofiq, u vertikal (ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq) va gorizontal (bir xil maqom darajasida yuzaga keladigan) ijtimoiy mobillik deb hisoblaydi [4].

Zamonaviy lug‘at va ensiklopediyalarda ijtimoiy mobillik ko‘pincha shaxs yoki guruhning ijtimoiy tuzilmadagi o‘rnini o‘zgartirishi, bir ijtimoiy qatlamdan (sinfdan) ikkinchisiga (vertikal mobillik) yoki bir xil ijtimoiy qatlam doirasidagi (gorizontal mobillik) sifatida talqin qilinadi [3, 5].

Keng ma‘noda mobillik (lotincha “mobilis” — harakatchan, harakatchanlik) tayyorgarlik, tezkor harakat qilish, harakat qilish, vazifalarni tezroq bajarish degan ma‘nolarni anglatadi. G.Sh.Rixsievaning ta‘kidlashicha, mobillik: 1) talabalarda boshqa mutaxassislardan bilim olish natijasida yangi bilimlar bazasini to‘ldirish, qiyoslash imkoniyatiga ega keng dunyoqarashli mutaxassis bo‘lishga imkon yaratadi, bu esa o‘z o‘rnida raqobat kuchli bo‘lgan mehnat bozorida talabga javob bera oladigan kadrning etishib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatadi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta‘sir eta oladigan mehnat resurslari sifatini oshiradi, 2) tadqiqotchilarga yangi materiallar beradi va ilmiy ish natijalarning aprobasiyasini tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi, 3) o‘qituvchilarda ta‘lim jarayonida mutaxassis va pedagog sifatidagi kompetentligini oshiradi va kreativ tafakkurni rivojlantirishga ta‘sir etadi [7].



Mamlakatimiz fanida “mobillik” mehnat resurslarining (ishchilarning) bandlik tizimidagi o‘z pozitsiyasini o‘zgartirish imkoniyati (tayyorgarligi) sifatida tushuniladi. Shu munosabat bilan mobillik quyidagi: ijtimoiy, ijtimoiy madaniy, kasbiy kabi turli turlarga ajratiladi.

Psixologik lug‘atda ushbu tushuncha kasbiy faoliyat bilan bog‘liq holda ko‘rsatilgan va shaxsning davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni tez va muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, etishmayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash imkoniyati va tayyorgarligi, zamonaviy kasbiy faoliyat samaradorligini ta‘minlaydi. Kasbiy mobillikni shakllantirish muammosini o‘rganishning kelib chiqishi mehnat taqsimoti va ijtimoiy mobil hodisalarini o‘rganishga borib taqaladi. Kasbiy faoliyat sohasidagi mobillik muammosi insonning muhandislik faoliyatining zamonaviy sharoitlariga moslashish zarurati bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Mutaxassislarning muhandislik faoliyatining “tabaqalanishi”ni engib o‘tish, ijodiy va innovation faoliyatga tayyor bo‘lish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘limning zamonaviy shakllarini izlash g‘oyalari ko‘plab faylasuflar, sosiologlar, o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan ifodalangan va “kasbiy mobillik” atamasi paydo bo‘lishidan ancha oldin amaliyotga tatbiq etilgan.

Kasbiy mobillikni shakllantirish muammosiga falsafiy yondashishning asosini E.Dyurkgeym, M.Veber, A.Shyus, M.Sheler va boshqa shu kabi xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari tashkil etgan bo‘lib, unda ushbu olimlar “mobillik” kategoriyasining mohiyatini dialektikaning asosiy qonunlari prizmasi orqali ochib berishadi. Miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish to‘g‘risidagi qonunga murojaat qilish mobillik jarayonining tuzilishida yangi zamonaviy sifat holatiga o‘tishni amalga oshirilishi bilan bog‘liq va yangisiga moslashishni ifodalovchi sakrash shaklida tushuniladi. Yuqoridagi dinamik o‘ziga xos xususiyatlarni bilish kasbiy faoliyat tavsifini taxmin qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qarama-qarshiliklarning birligi va kurashining dialektik qonuni ham mobillik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonun, jarayon va hodisalarning mobillik va rivojlanish manbasini belgilaydi. Jamiyat hayotida mobillikni amalga oshirish mexanizmi ushbu qonunning ta‘lim jarayonidagi ziddiyatlarni hal qilishdagi harakati bilan izohlanadi.

Muhandisning kasbiy mobilligini shakllantirish muammosini shakllantirishning tarixiy va falsafiy asosi shundan iboratki, “mobillik” toifasining rivojlanishi muhandislik faoliyati evolyusiyasi jarayonida sodir bo‘lgan va uning rivojlanish bosqichining har biri quyidagilar: fanda “kasbiy mobillik” tushunchasining paydo bo‘lishi va kuchayish tendensiyalari bilan tavsiflanadi.



Kasbiy mobillik ijtimoiy mobillikning tarkibiy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Hozirgi davrda, umumiy ma'nodagi, kasbiy mobillik, hatto bitta kasb doirasidagi ish joyi yoki funksiyasi o'zgarishi natijasida xodimning mehnat lavozimi yoki darajasidagi o'zgarish sifatida tushuniladi.

Kasbiy pedagogikada kasbiy mobillik muammosini faol ko'rib chiqish XX asrning 70-yillarida boshlangan. O'sha davrda kasbiy mobillik, birinchi navbatda, ishchining ish topshiriqlarini, ish joylarini va hatto bir xil kasb yoki sohadagi mutaxassisliklarni tezda o'zgartirishga tayyorgarligi va qobiliyati, texnik jadal o'zgarishlarning ta'siri ostida paydo bo'lgan zamonaviy mutaxassisliklar yoki ulardagi yangiliklarni tezda o'zlashtirish qobiliyati sifatida belgilandi. Kasbiy mobillikni aniqlashda D.V.Chernelevskiy sof sanoat bilimlari, ko'nikma va malakalari tushunchalarini yanada to'liq bilim, ko'nikma va malakalar bilan almashtirishni taklif qiladi, shu jumladan, sog'liqni saqlash va uni yaxshilash, demografik rivojlanish, an'analari va madaniyatni saqlash va rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilishni taklif qiladi. Ushbu talqinda kasbiy mobillik inson bilimlarining turli sohalarini umumlashtirilgan ko'nikma va malakalarni birlashtirgan ko'p qirrali tushunchasi sifatida namoyon bo'ladi [8].

M.I.Dyachenko va L.A.Kandibovichlar kasbiy mobillikning asosi, birinchi navbatda, umumlashtirilgan kasbiy bilimlarning yuqori darajasi, umumlashtirilgan kasbiy texnikalar tizimini egallash va ularni sohadagi har qanday vazifani bajarish uchun kasb sohasida samarali qo'llash qobiliyati ekanligini ta'kidlaydilar [6].

Xorijiy tadqiqotchilar D.Martens, A.Sheltonlarning ta'kidlashicha, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mobilligi va raqobatbardoshlik qobiliyatini shakllantirishning asosi keng ko'lamlari harakatlarga ega bo'lgan va bir chegaradan tashqariga chiqadigan "asosiy malakalar"ga asoslanishi lozim bo'lgan kasblar guruhi - bu mutaxassislarni kasbiy va psixologik jihatdan zamonaviy mutaxassisliklar va kasblarni o'zgartirish hamda o'zlashtirish uchun tayyorlab, kasbiy faoliyatlarida tadbirlar innovasiyalarga tayyorgarliklarini ta'minlaydi.

Axbortlashgan jamiyatda shaxsiy sifatlar va qobiliyatlarni, zarur kasbiy kompetensiyalar va kompetentliklarni shakllantirishning ko'plab vositalari orasida asosiy va eng muhimi ta'lim, xususan, oliy kasbiy ta'lim bo'lib qoladi. Oliy ta'limning ikki bosqichli kadrlar tayyorlashga o'tishi mobil mutaxassislar tayyorlash muammosini yanada keskinlashtirishga sabab bo'ladi. Texnika oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida kasbiy mobillikni maqsadli ravishda rivojlantirish bo'yicha o'quv vazifasi nafaqat talabalarning ta'lim jarayoni va



o‘quv faoliyatini tashkil etishga, balki ko‘proq darajada ta‘lim muassasasining butun hayotiy faoliyatini tashkil etishga alohida talablar qo‘yadi.

Shunday qilib, tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kasbiy mobillik maqsadli shakllanish va rivojlanish, shuningdek, ushbu jarayonni tegishli pedagogik yordam bilan o‘zi-o‘zini rivojlantirish uchun mos keladi. Mobillikning mavjudligi mutaxassislarning yuqori kasbiy va hayotiy tayyorgarligini ko‘rsatadi. Ushbu sifat, agar u kasbiy kompetentlikka mos keladigan bo‘lsa, ijobiy yo‘nalishga ega. Ammo kasbiy mobillik ko‘p jihatdan shaxsiy sifat va shaxs yo‘nalishining kasb talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta‘lim sharoitida kasbiy mobil mutaxassislarni tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish uning rivojlanayotgan shaxsining yo‘nalishini va tayyorgarlik darajasiga (bakalavr-magistr), tadbirlarga, ta‘lim vaziyatlariga qo‘shilishini e‘tiborga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Tegishli malaka darajasidagi mutaxassislarni tayyorlash uchun quyidagilar:

- talabalarning kasbiy shaxsiy o‘zini namoyon qilishini, ijtimoiy va ilmiy faoliyatini ta‘minlaydigan ta‘lim jarayonini tashkil etish;
- motivasiyani shakllantirish, tanlovni asoslash vositasi sifatida aks ettirish qobiliyatini rivojlantirish, o‘zi-o‘zini rivojlantirishga intilish;
- kompetensiyalarni, bilim va tushunchalarni shakllantirish (akademik sohadagi nazariy bilimlar), qanday harakat qilish kerakligini bilish (ma‘lum vaziyatlarda bilimlarni amaliy va operativ qo‘llash), bilim idrok va hayot qobiliyati sifatida;
- mustaqillik, faollik, axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirilganlik, moslashuvchanlik, o‘zini o‘zi tashkil etish va tajriba madaniyatini tarbiyalash kabilar muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta‘lim pedagogikasi shaxsning o‘z hayotiy qadriyatlari va intilishlariga muvofiq rivojlanish yo‘lini tanlash huquqini tan olish asosida tashkil etiladi. Bularning barchasi davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy ta‘lim paradigmasi talablariga mos keladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ637-son Qonuni. <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. T.: 2019, 8-oktyabr. <https://lex.uz>
3. Большой толковый социологический словарь / сост. Д. Джерри, Дж. Джерри. – Т.2. – М., 1999. – 588 с.
4. Горюнова Л.В. Профессиональная мобильность специалиста как проблема развивающегося образования России : моногр. – Ростов н/Д: Изд.во РГПУ, 2006.



5. Демографический энциклопедический словарь / гл. ред. Д. И. Валентей. – М.: Сов. энцикл., 1985. – 607 с.

6. Дьяченко М. И., Кандыбович Л. А. Психология высшей школы. Мн.: Харвест, 2001. – 383 с.

7. Rixsievа G.Sh. Ta'lim sifatini oshirish va xalqaro kredit mobillik bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida

8. Чернилевский Д. В. Дидактические технологии в высшей школе : учеб. пособие для вузов. – М.: Юнити, 2002. – 436 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada axborotlashgan jamiyatda sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar, davr talablariga muvofiq ravishda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va bandlik tarkibidagi o'zgarishlar bilan belgilanadigan oliy texnika o'quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy mobilligini shakllantirish bo'yicha strategik ko'rsatmalar ko'rib chiqiladi. Tarixiy jihatdan kasbiy mobillikni shakllantirish muammolari ko'rib chiqiladi, xatda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari belgilanadi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются стратегические ориентиры формирования профессиональной мобильности выпускников высших технических учебных заведений, определяемые стремительными изменениями, происходящими в информационном обществе, развитием современных технологий в соответствии с требованиями времени, изменениями в структуре работа. В письме рассмотрены проблемы формирования профессиональной мобильности с исторической точки зрения, определены перспективные направления ее развития.

SUMMARY

The article examines the strategic guidelines for the formation of professional mobility of graduates of higher technical educational institutions, determined by the rapid changes taking place in the information society, the development of modern technologies in accordance with the requirements of the time, and changes in the structure of work. The letter examines the problems of forming professional mobility from a historical point of view and identifies promising directions for its development.